

JIDUda Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining 2024-yil 31-may kuni o'tkazilgan yig'ilishida universitet boshqaruv tizimini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Birinchi kurs talabalar soni oshganligi munosabati bilan tashkiliy tuzilmaga o'zgartirishlar kiritildi va tasdiqlandi.

Xususan, fakultet dekanatlari faoliyati kuchaytirildi, ta'lim jarayoni sifatini yuksaltirish, ilmiy va xalqaro faoliyatni rivojlantirish hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida universitet bo'linmalari maqbullashtirildi va takomillashtirildi.